



## BO‘LAJAK REZERV VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNING VATANPARVARLIK TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY SIYMOLARIMIZNING IBRAT MAKTABI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410965>

**Zakirov Quadrat Sunnatovich**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, Toshkent shahar*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda tarixiy siymolarimizning ibrat maktabi, xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan va dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk ajdodlarimizning vatneparliklari haqida yozib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Vatanparvarlik, baynalmillik, tarbiya, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur.*

**Аннотация.** *В данной статье описывается пример наших исторических деятелей в формировании чувства патриотизма у будущих резервистов и офицеров запаса, а также патриотизм наших великих предков, достойных защищать нашу страну от захватчиков и храбро сражавшихся с врагом ради сохранения мира нашего народа.*

**Ключевые слова:** *патриотизм, интернационализм, образование, военно-патриотизм, высокие духовные и моральные ценности, будущий резерв и офицеры резерва, Джалолитдин Мангуберди, Амир Темур, Захиритдин Мухаммад Бабур.*

**Abstract.** *This article describes the role model of our historical figures in developing the sense of patriotism of future reserve and reserve officers, and the patriotism of our great ancestors, who worthy of defending our country from invaders and bravely fighting against the enemy in order to preserve the peace of our people.*

**Keywords:** *Patriotism, internationalism, education, military-patriotism, high spiritual and moral values, future reserve and reserve officers, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zakhiriddin Muhammad Babur.*

O‘zbekistonning turli sohalarda erishayotgan yutuqlaridan quvonish, uning istiqboli uchun qayg‘urish, o‘z

yurti bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeri, tabiiy boyliklari, qadimiy obidalari va zamonaviy inshootlari,



tarixiy qadriyatlari, ilm-fan va san'atdagi yutuqlari, moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash tuyg'ularini bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarda shakllantirish orqali uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida ularda vatanparvarlik tarkib toptiriladi.

Mamlakatimiz "Taraqqiyot strategiyasi"da "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'ulari, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, hayotga e'tiqodi va dunyoqarashi mustahkam, zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura oladigan shaxs sifatida tarbiyalash" [1] vazifalari belgilab berilgan. Bugungi kunda ham bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularga ajdodlarimiz merosi, O'zbekistonning erishayotgan yutuqlari, o'tmishi va kelajagi, boy madaniyati, ma'naviyati, ilmiy salohiyati haqida keng tasavvur hosil qilish talab etiladi.

Vatanparvarlik – ona – Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishishdir. Vatanparvarlik o'zbek xalqi, uning an'analari, tili, madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash, ularni chuqur o'zlashtirish hamda rivojlantirishga hissa qo'shish, yurtimizning haqiqiy jonkuyari bo'lish demakdir. Vatanparvarlik – o'zbek xalqining madaniy merosi, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi

kundagi ahamiyatini bilishni ham o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik – shaxsning ona yurti, o'z Vatanga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha ekanligi bilan ham alohida pedagogik qimmatga ega. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-sonli qarorida "Mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda", [2] – degan g'oya olg'a surilgan. Aslida, tarixiy shaxslar – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz – o'z hayoti, jasorati va fidoyiligi bilan yosh avlod uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Amir Temur "Kuch – adolatda" tamoyili orqali davlatni adolatli boshqarish va xalqni himoya qilishda vatanparvarlikning eng yuksak namunalarini ko'rsatgan. Jaloliddin Manguberdi Vatanni himoya qilish



yo'lida jonini fido qilgan, mustaqillik uchun kurashning ramziga aylangan. Zaxiriddin Muhammad Bobur esa o'z asarlarida ham, siyosiy faoliyatida ham vatan va xalq taqdiriga befarq bo'lmagan, milliy g'ururni ulug'lagan.

Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z Vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashagan hududning dahlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular majmuidir. Vatanparvarlikning dastlabki elementlari qadimgi shakllarda paydo bo'lgan insonning yashash muhitining tabiiy muhitiga qo'shilishi, buning aksadosi – ko'pchilik uchun xos bo'lgan, Vatan deb atalmish Vatanga, kichik Vatanga nisbatan hissiy jihatdan ko'tarilgan munosabat – shaxs sifatida shakllanishi sodir bo'lgan joy. Xuddi shu paytni o'zida hayot sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlariga rioya qilish shakllanadi, Vatanning ijtimoiy-madaniy muhiti aniqlanadi. Odatda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlanishi quyidagilarga katta ta'sir o'tkazadi, bular: etnik (qabilaviy, keyinchalik – milliy) jamoaviy va diniy shakllanishlardir. Ularning tarixiy tajribasi va an'analari, shuningdek, xarakteri va millatlararo va dinlararo munosabatlarning holati vatanparvarlikning namoyon bo'lish mazmuni va shakllariga ta'sir qiladi.

Bo'lajak bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish tajribasini o'rganish maqsadida so'nggi yillarda

ushbu masala bo'yicha amalga oshirilgan dissertatsiya tadqiqotlari tahlil qilindi.

Masalan, Z.Alimardonov [3] ishida oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxasislarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ayrim jihatlari ko'rib chiqilgan.

Davlatning shakllantirilishi vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Davlatga va davlat hokimiyatiga, umuman olganda, mas'uliyatli munosabat siyosiy muhit vatanparvarlikning ajralmas va muhim qismiga aylanadi, bu bilan siyosiy ongning xarakteriga ega bo'ladi. Jamiyatdagi o'ziga xos tarixiy vaziyatga qarab vatanparvarlik turli yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin – mavjud siyosiy rejimni so'zsiz qo'llab-quvvatlashdan tortib, uni rad etishgacha.

Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning eng muhim, barqaror, integral xarakteristikasi o'zida uchta o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

Birinchi, vatanparvarlikning asosiy muhim ko'rinishida. Bu Vatanga muhabbat, Vatanga sadoqat. Bu aslida ijtimoiy tuyg'u – jamoat, birlik, oila bilan birdamlik hissi va yaqinlar, ularning taqdiriga dahldorlik hissi. Birlamchi yaxlit manba sifatida Vatanga muhabbat tuyg'usi tajribalar, qarashlar va g'oyalar negizida yotadi. Vatanparvarlik ijtimoiy tuyg'u sifatida individual va shaxsiydir, chuqur samimiy xarakter kasb etadi. Vatanparvarlik shaxsning ma'noli, aziz va muqaddas tuyg'usi sifatida ongsiz va ongli darajada sub'ektiv ma'nolar bilan



to'ldiriladi va qadriyatlar ierarxiyasida yetakchi o'rinni egallaydi. Vatandarparvarlik tuyg'usi inson erkinligida chuqur ildiz otgan. Vatanga muhabbat har doim inson shaxsiyatida individual tarzda o'z taqdirini erkin belgilash masalasidir. Shundan kelib chiqib, oddiy hayotda va tarixiy vaziyatlarda vatarparvarlik yagona hissiy-irodaviy kompleksni ifodalaydi. Aynan Vatanga bo'lgan muhabbat irodali bo'lishga va faollikka undaydi.

Ikkinchidan, vatarparvarlik, ijtimoiy hissiyotga qo'shimcha ravishda, boshqa shaxsiy xususiyatlarida ifodasini topadi va g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi. Shaxsning dunyoqarashi, munosabatlari, xatti-harakati va faoliyati, ya'ni o'z Vatanining o'tmishiga hurmat, o'z xalqining urf-odatlarini va an'alariga muhabbat, Vatan tarixini bilish; Vatan qudratini mustahkamlashga intilib, Vatanni himoya qilishga tayyorlik, shaxsiy va jamoat manfaatlari asosida Vatanni izchil rivojlantirishga yordam berish kabilarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, shaxsiy darajadagi vatarparvarlik bevosita, boshqalar tomonidan shakllangan boshqa fazilatlar: yaxlit dunyoqarash, ma'naviyat, axloqiy ideallar, shaxsiy xulq-atvor normalari bilan ta'lim turlari, umumiy tarbiyaning integral aloqalarini tavsiflaydi.

Vatarparvarlik baynalminallik bilan o'zaro bog'liq. Baynalminallik – jahondagi turli millat va irq'larga mansub kishilarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birini tushunishlari va o'zaro ishonchi, madaniyatlar, qadriyatlar, bilim

va texnologiyalar o'zaro singib borishining asosi; millatchilikning ziddi [4]. Insoniyat tarixida turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borish jarayoni. Mazkur munosabatlarsiz esa, ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi. Hozirgi rivojlanish davrida asosiy e'tibor shaxsiy vatarparvarlikka yondashiladi, chunki unda ona Vatanga bo'lgan muhabbat xalq miqyosida odamlarning ongida fuqaroviy tarbiyasi, oilasi, uyi, kerak bo'lsa ko'chasi, sport to'garagi, shahri, xududi, Vatani va xalqi uchun g'ururlanish hissi yotadi. Jamiyat taraqqiyotida eng qadimgi davrlardan boshlab yosh avlodni vatarparvarlik ruhida tarbiyalashga jiddiy e'tibor berib kelingan. Ibtidoiy jamoa davrida kishilar mehnat faoliyati jarayonida bolalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaganlar.

T.Utebayevning ta'kidlashicha, bu jarayonda bolalar o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib ketib, hayot kechirish va mehnat qilishga o'rgangan. Ular og'ir sharoitlarda erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajargan. Mavjud odatlar va an'analarga ko'ra, yoshlar keksalar nazoratida hayotiy tajribalarni o'zlashtirganlar. Bolalar jamoa, enaga yoki murabbiylarda ma'lum tayyorgarlikdan so'ng sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaganlar. Ana shu an'ana, ya'ni bolalarni ma'lum yoshgacha enaga va murabbiylarga topshirish yaqin davrlargacha, hatto hozirgi kunda ham davom etmoqda [5].



Eramizdan oldin taxminan 484-431/425 yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning vatanparvarlik tarbiyasiga oid ma’lumotlar ham keltirilgan. Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlik bo‘lib, o‘g‘il farzandlari bilan faxrlanganlar. Podshoh kimning o‘g‘li bo‘lsa, unga sovg‘a-salomlar yuborgan. Bolalar besh yoshidan boshlab otda yurish, kamondan otish, sofdil va to‘g‘ri so‘zlikka o‘rgatilgan. Shart-sharoitlarning o‘zi farzandlarni otda yurishga, kamondan otishga o‘rgatgan, ularda jasurlik, to‘g‘rilik, botirlik xislatlarini, o‘z xalqini himoyachisi etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan [6].

Bizgacha yetib kelgan qahramonlik eposlarida Vatan va erkinlikka intilish, yurti va qabilasi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg‘ulari ifodalanadi. To‘maris, Shiroq kabi jasur vatanparvarlar, buyuk qahramonlar Rustam, Siyovush, Alpomish haqidagi epik asarlarda tasvirlangan qahramonlar Vatanini sevadi. Buyuk burch hissi, Vatan va o‘z xalqi uchun jonini qurbon qilish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish ularning asosiy xislatlaridir. Xalq qahramonlarining asosiy fazilatlari jasurlik va mardlik bo‘lgan [7].

Qadimgi ajdodlarimiz insondagi jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylikni bag‘oyat qadrlaganlar. VI-asrda yozib qoldirilgan O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ham bahodir hoqonlar va alplarning jangovarlik faoliyati, turmush

tarzi, xislatlari orqali vatanparvarlik, birdamlik, ittifoq bo‘lib yashash uchun kurash, mardlik, jasorat kabi ezgu g‘oyalar ilgari surilgan.

O‘rxun-Enasoy tosh bitiklarida hoqonlarining yurishlari, ularning jangovarlik sifatlari bayon etilgan. Hoqonlikning tashkil topishi alp va jasur yigitlar zimmasiga tushib, ular o‘z Vatani mustaqilligi uchun kurashadilar, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamligi uchun kurash hoqonlar Bushin, Istami, Eltarish, Eltarishning o‘g‘illari Bilga, lashkarboshi Kultegin, ma’naviy otalari To‘nyuquqlarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi [8]. Bu yodnoma yoshlarni Vatanni sevish, birlashish, xalq va Vatan manfaati yo‘lida kurashga tayyor turish ruhida tarbiyalashga undaydi. Bilga hoqon sarkarda Kultegin jasoratlari haqiqiy vatanparvarlik hamda jasorat namunasidir.

Vatanparvarlik tarbiyasiga temuriylar va boburiylar davrida ham, ayniqsa, katta e’tibor qaratilgan. Buyuk sarkarda Amir Temurning o‘zi mohir nayzaboz, qilichboz, chavandoz, mergan bo‘lgan. U tarbiyani insonparvarlik g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirib olib boradi. Sohibqiron faoliyatining asosiy maqsadi ham o‘z saltanatida – yirik imperiya barpo etish, tinchlik va osoyishtalik o‘rnatish, urush tufayli vayron bo‘lgan mamlakatni obod etish edi.

Amir Temur tarbiyada intizomga qattiq rioya etishni talab qilgan. O‘z tasarrufiga kiritgan hududlarda olingan o‘ljalarni saltanati xazinasiga tushishini,



alohida jonbozlik ko'rsatgan askarlarni esa, maoshidan tashqari rag'batlantirishga harakat qilgan. Shahar va qishloqlarni payhon etmaslik, aksincha, g'anim lashkarlaridan ham qahramonlik ko'rsatganlarni alohida hisobga olib, ulardan o'rnak olishni ta'kidlagan.

Amir Temur o'z lashkarini tuzishda qonun-qoidalarga rioya etishni talab qilar ekan, har bir jangchini tanlashda uning jasurligi, jangu jadallarda qahramonlik ko'rsatganligi bilan birga aqlu farosatiga ham e'tibor bergan. Bu haqda uning shunday o'giti diqqatga sazovordir: "Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch- quvvatiga, ikkinchidan – qilich o'ynata olishiga, uchinchidan – aql-zakovati, kamolotiga e'tibor qildim. Shu uch fazilat jamul-jam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, aqlli navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin" [9].

Tarbiyada Amir Temur yakdillikni chuqur his eta olishiga, askarlarni uyushtira olgan o'nboshi, yuzboshi, amir va mingboshilarini taqdirlab borgan va buni barcha jangchilar oldida e'tirof etgan. Sohibqiron o'zi tuzgan yagona davlat fuqarolarining tinchligi, farovonligini ta'minlashda "Kuch adolatda" degan g'oyasini o'zining siyosatiga ham asos qilib oldi. Natijada,

o'z davrining kuchli qo'shiniga ega bo'ldi. O'z navkarlari va o'nboshi, yuzboshi, mingboshilarni tengsiz jasorat, fidoyilik ruhida tarbiyalash bilan birga jismoniy baquvvat, sog'lom va aql-zakovat egasi bo'lishiga zamin yaratdi. Tarixiy siymolar hayoti va faoliyati ofitserlar uchun axloqiy kompas bo'lib xizmat qiladi. Ularning jasorati va fidoyiligi bo'lajak ofitserlarda mas'uliyat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantiradi. Tarixiy misollar orqali yoshlar o'z kasbiy burchini xalq va vatan manfaatlarini bilan bog'lashni o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik tarbiyasiga doir qadriyatlarimizning ildizlari eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xalqimiz azal-azaldan yoshlarni vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, dovyuraklik yuksak namunalarni tarbiyalashni o'zining yuksak burchi deb bilgan. To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarning siymosida biz minglab yurtdoshlarimizning jasorati evaziga bu buyuk Vatan gullab-yashnab, yasharib borayotganini guvohi bo'lamiz. Tarixiy siymolarimizning hayoti va merosi – bu nafaqat o'tmish xotirasi, balki bugungi kun uchun ham ruhiy quvvat manbai. Bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar uchun ular haqiqiy ibrat maktabi bo'lib, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashda eng samarali vosita hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR:



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. – T., 03.07.2023 y., 09/23/267/0438-son; 16.01.2024 y., 09/24/25/0036-son; 10.05.2024 y., 09/24/272/0337-son.
3. Alimardonov Z.Sh. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish: Ped. fanl. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – Toshkent: O‘zDJTU, 2019. – 174 b.
4. Safarova R.G., Djurayev R.H. Pedagogika ensiklopediya. – 1-jild. – T., 2015. – 377 b.
5. Utebayev T.T. Qoraqalpog‘istonda XX-asr ikkinchi yarmi va XXI-asr boshidagi ta‘lim-tarbiyaviy fikrlar rivojlanishi: Ped.fanl.d-ri ... Dis. – T., 2016. – 323 b.
6. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. 2-q. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 304 b.
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T., 2004. – 335 b.
8. Boynazarov F.A. Qadimgi yodgorliklar. Iskandar Zulqarnayn. –T.: Adabiyot va san‘at, 1990. – B. 213-240.
9. Amir Temur o‘g‘itlari: To‘plam / Tuzuvch.: B.Axmedov, A.Aminov. –T.: Navro‘z, 1992. – 64 b.